

GAP TARKIBIDA MAF'UL BIHINING GAPDA JOYLASHUV O'RNI

Azizbek Isamutdinov

Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası

katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilidagi *maf'ul bihi* (vositasiz to'ldiruvchi)ning gap tarkibidagi odatdagi va o'zgaruvchi tartibda kelish xususiyatlarini tahlil qiladi. Muallif o'zbek va rus arabshunoslarining fikrlariga tayanib, arab tilidagi fe'llar bilan keluvchi to'ldiruvchilar soni, ularning tartibi va kelishik shakllariga oid grammatik muammolarni ochib beradi. Ayniqsa, vositasiz va vositali to'ldiruvchilarni farqlashda uchraydigan chalkashliklar, gap bo'laklarining joylashuvi va ularning semantik yuklamasi o'rganiladi. Shuningdek, zamonaviy nahvshunoslardan biri Mustafo G'alayiniy va klassik tilshunos Zamaxshariy qarashlari asosida *maf'ul bihining* belgilari keng yoritiladi. Maqola arab tili sintaksisini o'rganayotganlar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali bo'lgan materialdir.

Kalit so'zlar: maf'ul bihi, vositasiz to'ldiruvchi, gap bo'laklari tartibi, arab sintaksisi, nahv ilmi, Mustafo G'alayiniy, Zamaxshariy, fe'l va to'ldiruvchi, arab tili grammatikasi.

O'zbek tilimizda gap bo'laklarining odatdagi tartibi va ayrim sabablarga ko'ra o'zgargan tartibi mavjud. Xuddi shu singari arab tilida ham gap bo'laklarining odatdagi tartibi va ayrim sabablarga ko'ra o'zgargan tartiblari mavjud. Lekin ko'p hollarda arab tilini o'rganuvchilar gaplarning odatdagi va o'zgargan tartiblari mavjudligi, ular o'rtasidagi farqlar katta ahamiyatga ega ekanligini e'tibordan chetda qoldiradilar.

Quyida, avvalo, maf'ul bihining, odatda, jumlada gapning qaysi bo'lagidan keyin yoki oldin kelishi bilan tanishib chiqamiz.

Maf'ul bihiga ko'p kitoblarda aynan vositasiz to'ldiruvchi deb nom berilishi *maf'ul bihining* gapdagi joylashuv o'rni borasida ham ba'zi bir tushunarsiz holatlarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Jumladan, N.Ibrohimov, M.Yusupovlar *maf'ul bihini* vositasiz to'ldiruvchi¹ atamasi bilan berishgan. Biroq o'zidan keyin ikkita so'zni tushum kelishigida boshqaradigan fe'llar mavjudligi, ularning birinchisi vositali, ikkinchisi vositasiz to'ldiruvchi bo'lishini ham aytib o'tishgan va misol sifatida quyidagi gapni keltirishgan:

أعط محمدًا كتاباً – Muhammadga kitob bering (mz)².

M.Nosirova ham *maf'ul bihini* vositasiz to'ldiruvchi³ atamasi bilan keltirgan.

V.N.Yushmanov esa bu masalani kengroq tushuntirib shunday deydi: “tushum kelishigi ish-harakatning yaqin predmetga o'tishini bildiradi, ya'ni o'timli fe'lning bevosita to'ldiruvchisidir. Masalan: خذ قلمًا – Qalamni ol.

Undan so'ng ish-harakatning uzoqdagi predmetga o'tishini bildiradi, ya'ni jo'nalish kelishigi ma'nosidagi to'ldiruvchidir. Masalan:

أعطني قلمًا – menga qalam ber”⁴.

Ushbu olim gap bo'laklarning tartibi haqida quyidagilarni keltirib o'tadi:

«Порядок слов определяется ходом мысли, начиная с того, на что в данное мгновение обращают больше внимание, и продолжаясь по направлению к ближайшему члену мысли.

Обычный порядок глагольного предложения таков: 1) сакузуемое, 2) подлежащее, 3) дополнение; нп. زار سليمان داود «Соломон посетил Давида». Иногда дополнение подчеркивается постановкой перед подлежащим или перед сказуемым, нп. داود زار سليمان или زار داود سليمان ; но такая постановка недопустима, когда подлежащее и дополнение

¹ Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T., 1997. – B. 427.

² O'sha kitob. – T., 1997. – B. 380.

³ Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning “al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDSHI, 2005. – B. 97.

⁴ Юшманов В.Н. Грамматика литературного арабского языка. - Санк-Петербург: Пресс, 1999. – С. 112.

неизменяемы, нп. قتل الفتى دارا «Дарий убил юношу» «юноша убил Дария»⁵.

Mana shu masalalarni yoritish davomida olim gap bo‘laklarining joylashuv tartibi bilan bog‘liq yana bir jihatni keltirib o‘tadi.

Существует еще смешанный вид предложения, где дополнение занимает первого места, но, будучи представлено еще слитным местоимением при галоголе, может стоять также в именительном падеже; нп. الأم يحبها الولد «дитя любит мат». По образу настоящего «занятия» иногда делается и ложное – подлежащее принимается за дополнение; нп. يوسف أكرم إخوته الملك «Иосиф, братьев которого почтил царь»⁶.

B.M.Grande ham *maf’ul bihini* tushum kelishigi mavzusi ostida keltirib, ish-harakat bevosita o‘tadigan obyekt, odatda, tushum kelishigi bilan ifodalanadi deb, U bir kishini uchratdi⁷ misolini keltiradi.

Yuqoridagi o‘zbek va rus arabshunoslarining fikrlariga aniqlik kiritish maqsadida birinchi bobda keltirib o‘tilgan zamonaviy arab nahvshunoslaridan biri Mustafó G‘alayiniyning maf’ul bihiga bergan quyidagi ta’rifi va bu boradagi ba’zi bir fikrlari bilan tanishib chiqamiz: “Bajaruvchining ish-harakati nimaning ustida ro‘y bersa, ish-harakatning bo‘lishli yoki bo‘lishsiz bo‘lishidan qat’iy nazar o‘sha narsani anglatuvchi so‘z *maf’ul bihidir*. Shu sababdan, fe’l shakli aniq nisbatda turadi. Masalan:

بريت القلم – qalamni yo‘ndim.

ما بريت القلم – qalamni yo‘nmadim.

Agar fe’l gapda bittadan ko‘proq *maf’ul bihini* talab qiladigan bo‘lsa, maful bihi uyushib keladi. Masalan:

أعطيت الفقير درهماً – Faqirga dirham berdim.

ظننت الامر واقعا – Ishni bo‘ldi (ro‘y berdi) deb o‘ylabman.

⁵ O‘sha joyda.

⁶ O‘sha joyda.

⁷ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении – Москва, 1998. – С. 343.

”⁸ Saidga ishning aniq ekanligini bildirdim – أعلمت سعيداً الأمر جلياً

Zamaxshariy bu borada quyidagi ta’rifni keltirganlar:

المفعول به هو الذي يقع عليه فعل الفاعل في مثل قولك ضرب زيد عمراً وبلغت البلد. وهو الفارق بين المتعدي من الأفعال وغير المتعدي⁹.

Bajaruvchining ish-harakati nimaning ustida ro‘y bergan bo‘lsa, o‘sha so‘z *maf’ul bihidir*. U fe’llarning o‘timli yoki o‘timsizligini farqlovchidir.

Maf’ul bihining, odatda, gap tarkibida turadigan o‘rnining o‘zgaradigan holatlari mavjud.

تقديم المفعول به وتأخيرُهُ

الأصل في الفاعل أن يتصل بفعله، لأنه كالجزء منه، ثم يأتي بعده المفعول. وقد يُعكس الأمر. وقد يتقدم المفعول على الفعل والفاعل معاً. وكل ذلك إما جائز، وإما واجب، وإما مُمتنع.

Xulosa qilib aytish mumkinki, arab tilining sintaktik tizimida *maf’ul bihi* – vositasiz to‘ldiruvchi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada *maf’ul bihining* gap tarkibidagi odatdagi va o‘zgaruvchan tartibi, uning boshqa gap bo‘laklari bilan o‘zaro munosabati, hamda grammatik belgilari tahlil qilindi. O‘zbek va rus tilshunoslari, xususan, N.Ibrohimov, M.Yusupov, V.N.Yushmanov kabi olimlarning fikrlari asosida mavjud chalkashliklar aniqlashtirildi.

Zamonaviy nahvshunos Mustafo G‘alayiyniy va klassik grammatik Zamaxshariyning yondashuvlari orqali *maf’ul bihining* tushum kelishigida bo‘lishi, fe’lning o‘tishlilik darajasi bilan bevosita bog‘liqligi, hamda unga oid turlari oydinlashtirildi. Maqolada shuningdek, arab tilida gap bo‘laklarining joylashuvi, ya’ni fe’l – faol – *maf’ul* tartibi va undan og‘ish holatlari tahlil qilinib, bunday og‘ishlar mantiqiy urg‘u, semantik farqlash yoki stilistik sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi ko‘rsatildi.

Maqola natijalari arab tili grammatikasini chuqur o‘rganish, ayniqsa nahv bo‘limidagi tushunishlarni aniqlashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, arab tilini o‘rganuvchilar uchun fe’l va to‘ldiruvchi o‘rtasidagi grammatik va semantik munosabatlarni farqlashga yordam beradi.

⁸ الشيخ مصطفى غلاييني جامع الدروس العربية. مصر. 2007. ص. 394.
⁹ المفصل 58 الزمخشري

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Носирова, М. (2005). Махмуд Замахшарийнинг «Ал Унмузаж фи н нахв» рисоласи. Т.: ТошДШИ
2. Nasirova M. (2004) O'rta asr nahvidan namunalar. T.: ToshDSHI
3. Rakhmatova, G. O. (2023). PRINCIPLES OF DIVISION OF SIMPLE SENTENCE TYPES IN ANCIENT TURKIC LANGUAGE. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(11), 94-98.
4. Sirojiddin SOTVOLDIEV. (2024). Lexical-Semantic And Functional Analysis Of Translations From The Arabic Press. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 39, 15–17.
5. العلامة ابن حمدون. كتاب حاشية العلامة ابن حمدون علي شرح المكودي لألفية ابن مالك. 1955 م. ص. 147.
6. الشيخ الهمام خالد بن عبد الله الأزهرى علي ألفية ابن مالك في النحو. القاهرة. 1954م. ص-323
7. أبو بكر مهمد بن سهل بن سراج. الأصول في النحو. 1996. بيروت. ص-159
8. ابن يعش موفّق الدين أبي البقاء يعيش بن علي بن يعيش الموصلي. كتاب شرح المفصل. بيروت. 2001. ص. 272.